FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 159.9:796

Rasulov Zokir Pardayevich,
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, uning tarkibiy komponentlari hamda shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik omillar tahlil qilingan. Xususan, kasbiy motivatsiya, kognitiv salohiyat, emotsional barqarorlik, kommunikativ qobiliyat, refleksiv yondashuv, stressga chidamlilik va kasbiy identifikatsiyaning mutaxassis tayyorgarligidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini baholashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalar hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Faktorli tahlil natijalari asosida kasbiy kompetentlikning rivojlanishida shaxsning emotsional-irodaviy, kommunikativ, ijtimoiy yetuklik va o‘zini boshqarish xususiyatlarining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, sport psixologlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish, psixologik barqarorlikni rivojlantirish va refleksiv ko‘nikmalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak sport psixologlari, kasbiy kompetentlik, kasbiy motivatsiya, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, stressga chidamlilik, kognitiv moslashuvchanlik, kasbiy identifikatsiya, psixodiagnostika.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПОРТИВНЫХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические особенности развития профессиональной компетентности будущих спортивных психологов, её структурные компоненты и индивидуально-психологические факторы формирования. Особое внимание уделяется роли профессиональной мотивации, когнитивного потенциала, эмоциональной устойчивости, коммуникативных способностей, рефлексивного подхода, стрессоустойчивости и профессиональной идентификации в процессе подготовки специалистов. В исследовании использованы психодиагностические методики, направленные на оценку профессиональной компетентности будущих спортивных психологов, а также методы математико-статистического анализа. На основе результатов факторного анализа раскрывается значение эмоционально-волевых, коммуникативных характеристик, социальной зрелости и навыков саморегуляции в развитии профессиональной компетентности. Кроме того, представлены научно-практические рекомендации по совершенствованию подготовки спортивных психологов посредством интеграции теоретических знаний и практического опыта, развития психологической устойчивости и рефлексивных навыков.

Ключевые слова: будущие спортивные психологи, профессиональная компетентность, профессиональная мотивация, эмоциональная устойчивость, коммуникативная компетентность, рефлексия, стрессоустойчивость, когнитивная гибкость, профессиональная идентификация, психодиагностика.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE SPORTS PSYCHOLOGISTS

Abstract. This article examines the psychological characteristics of professional competence development in future sports psychologists, its structural components, and the individual psychological factors influencing its formation. Particular attention is given to the role of professional motivation, cognitive potential, emotional stability, communication skills, reflective thinking, stress resilience, and professional identity in specialist training. The study employs psychodiagnostic methods aimed at assessing the professional competence of future sports psychologists, together with mathematical and statistical analysis techniques. Based on factor analysis results, the importance of emotional-volitional characteristics, communication skills, social maturity, and self-regulation abilities in the development of professional competence is explored. The article also presents scientific and practical recommendations for improving the professional training of sports psychologists through the integration of theoretical knowledge and practical experience, the development of psychological resilience, and the enhancement of reflective skills.

Keywords: future sports psychologists, professional competence, professional motivation, emotional stability, communicative competence, reflection, stress resilience, cognitive flexibility, professional identity, psychodiagnostics.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida sport sohasining jadal rivojlanishi, xalqaro musobaqalar raqobatining kuchayishi va sport natijalariga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi sportchilarning nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarligini ham takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Sport faoliyatida yuqori natijalarga erishish ko‘p jihatdan sportchining motivatsion holati, emotsional barqarorligi, o‘zini boshqarish qobiliyati, stressli vaziyatlarga moslashuvi va psixologik tayyorgarligiga bog‘liq. Mazkur jarayonda sport psixologining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki sport psixologi sportchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, musobaqa oldi ruhiy tayyorgarligini ta’minlash, psixologik zo‘riqishlarni kamaytirish, jamoada sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va sportchilarning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim vazifalarni bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassisning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va kasbiy malakalari bilan cheklanib qolmay, balki uning shaxsiy sifatlari, kasbiy tafakkuri, kommunikativ imkoniyatlari, emotsional intellekti, refleksiv qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini ham qamrab oladi.

Sport psixologining kasbiy faoliyati o‘ziga xos psixologik talablar bilan tavsiflanadi. Jumladan, u sportchining ruhiy holatini to‘g‘ri baholashi, murakkab vaziyatlarda vazminlikni saqlashi, turli xarakter va temperamentga ega insonlar bilan samarali muloqot qilishi, shuningdek, psixologik muammolarni aniqlash va bartaraf etishning maqbul usullarini tanlay olishi lozim. Bunday kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun bo‘lajak mutaxassisda kasbiy motivatsiya, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, ijtimoiy moslashuvchanlik va refleksiv tafakkur yetarli darajada shakllangan bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim jarayonining mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, psixodiagnostik faoliyat, sport muassasalaridagi tajriba, ustoz-shogird an’analari va individual psixologik xususiyatlar o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur jarayonni kompleks o‘rganish, kasbiy kompetentlikning psixologik tarkibiy qismlarini aniqlash va ularni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy kompetentlik muammosi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida mutaxassis shaxsining shakllanishi, kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va professional rivojlanishi bilan bog‘liq holda keng o‘rganilgan. Mazkur tushunchaning mazmuni mutaxassisning kasbiy bilimlari, amaliy malakalari, individual-psixologik xususiyatlari hamda o‘z faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlari orqali izohlanadi. Sport psixologiyasi yo‘nalishida esa kasbiy kompetentlik sportchilarning ruhiy holatini baholash, psixologik yordam ko‘rsatish, jamoaviy munosabatlarni tartibga solish va musobaqa jarayonidagi psixologik omillarni boshqarish qobiliyatlari bilan belgilanadi.

D.N. Arzikulov, Z.G. Gapparov va D.B. Vaxabova tomonidan sport psixologiyasiga oid olib borilgan tadqiqotlarda sport faoliyatining psixologik xususiyatlari, sportchi shaxsining individual sifatlari va psixologik tayyorgarlik masalalari yoritilgan. Mualliflarning qarashlari bo‘lajak sport psixologlarini tayyorlashda sport faoliyatining psixologik qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirish zarurligini asoslashga xizmat qiladi [1].

S.A. Eliseev, N.V. Jurin va T.N. Jurina sport faoliyatida amaliy psixologning kasbiy faoliyatini tavsiflashga alohida e’tibor qaratgan. Ularning tadqiqotlarida sport psixologining kasbiy vazifalari, mutaxassisga qo‘yiladigan talablar va professional faoliyatning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Mazkur yondashuv bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy bilimlar bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarni shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi [2].

O.V. Tiunova sport psixologiyasi sohasida mutaxassislarning malakasini oshirish va ko‘p bosqichli kasbiy tayyorgarlik tizimini rivojlantirish masalalarini o‘rgangan. Muallifning fikricha, sport psixologlari tayyorgarligida uzluksiz ta’lim, amaliy tajriba va kasbiy bilimlarni muntazam yangilab borish muhim o‘rin tutadi.

Bu esa bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash zarurligini anglatadi [3].

A.A. Bodaleva, A.A. Derkach va L.G. Laptev tahriri ostida tayyorlangan amaliy psixolog faoliyatiga oid qo‘llanmada mutaxassisning psixologik tayyorgarligi, shaxslararo munosabatlarni tashkil etish, inson xulq-atvorini tahlil qilish va amaliy psixologik yordam ko‘rsatish masalalari yoritilgan. Ushbu qarashlar sport psixologining kasbiy faoliyatida kommunikativ qobiliyat, empatiya, emotsional boshqaruv va refleksiv yondashuvning ahamiyatini tushunishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

N.V. Basova va I.L. Dmitrieva tomonidan sport loyihalarining ijtimoiy ahamiyati va ularni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotda sport sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hamda tashkiliy faoliyatning ayrim jihatlari ko‘rib chiqilgan [5]. Bu yo‘nalish sport psixologining faqat individual sportchi bilan emas, balki murabbiylar, sport jamoalari, sport tashkilotlari va boshqa ijtimoiy subyektlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi zarurligini anglashga yordam beradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, sport psixologlari kasbiy kompetentligining alohida tarkibiy qismlari turli tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislarning individual-psixologik xususiyatlari bilan aloqadorligi kompleks o‘rganishni talab etadi. Shu jihatdan kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, emotsional, kommunikativ, refleksiv va faoliyat komponentlarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish mazkur tadqiqotning nazariy yo‘nalishini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsning kasbiy shakllanishi, individual-psixologik xususiyatlari, kasbiy kompetentlik va psixologik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganuvchi psixologik yondashuvlar tashkil etadi. Bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikning rivojlanish jarayoni motivatsion, kognitiv, emotsional, kommunikativ, refleksiv va faoliyat komponentlarining o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Bunda kasbiy kompetentlik shaxsning sport psixologiyasi sohasiga oid bilimlarni o‘zlashtirishi, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishi, sportchilar bilan samarali munosabat o‘rnatishi va murakkab psixologik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi imkoniyatlarini ifodalovchi integral sifat sifatida qaraldi.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak sport psixologlarining individual-psixologik xususiyatlari, kommunikativ qobiliyatlari, stressli vaziyatlarga munosabati, hayotiy chidamliligi va kasbiy faoliyat uchun ahamiyatli bo‘lgan shaxsiy sifatlarini aniqlash maqsadida bir qator psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Jumladan, V.V. Boykoning “Umumiy kommunikativ tolerantlikni aniqlash” metodikasi, M.A. Dimetreyevaning “Kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarni aniqlash” so‘rovnomasi, T.A. Kryukovaning “Stressli vaziyatlarda koping-xulqni baholash”

so‘rovnomasi hamda S. Maddining “Hayotiy chidamlilik” testi tadqiqot vositalari sifatida tanlandi.

Mazkur metodikalar orqali sinaluvchilarning muloqotga moyilligi, emotsional barqarorligi, o‘ziga ishonchi, mustaqilligi, mas’uliyatliligi, o‘zini nazorat qilish qobiliyati, stressga munosabati va qiyin vaziyatlarni yengib o‘tish strategiyalariga oid ko‘rsatkichlarni o‘rganish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini belgilovchi muhim psixologik sifatlar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Olingan empirik ma’lumotlarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil usullaridan, jumladan, Styudentning t-mezoni, Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti, foizli tahlil va faktorli tahlil usullaridan foydalanish nazarda tutildi. Faktorli tahlil individual-psixologik ko‘rsatkichlarning o‘zaro aloqadorligini aniqlash hamda kasbiy kompetentlikning tarkibiy asoslarini umumlashtirishga xizmat qildi. Tadqiqotda statistik ko‘rsatkichlarni mazmunan talqin qilish, olingan natijalarni nazariy qarashlar bilan qiyoslash va ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi ahamiyatini aniqlashga alohida e’tibor qaratildi.

NATIJALAR

Bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish jarayonida shaxsning individual-psixologik sifatlari va kasbiy faoliyatga tayyorgarligi o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga e’tibor qaratildi. Sport psixologining kasbiy faoliyati yuqori darajadagi mas’uliyat, emotsional barqarorlik, kommunikativ faollik, mustaqil fikrlash va murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqara olish qobiliyatini talab etadi. Shu sababli tadqiqotda mazkur sifatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqot materiallarida keltirilgan faktorli tahlil natijalariga ko‘ra, bo‘lajak sport psixologlarining individual-psixologik xususiyatlari oltita asosiy faktor doirasida umumlashtirilgan. Ushbu faktorlar tarkibida hissiy barqarorlik, muloqotga moyillik, ijtimoiy yetuklik, dadillik, mustaqillik, mas’uliyatlilik, o‘zini nazorat qilish, matonatlilik va qat’iylik kabi ko‘rsatkichlar muhim o‘rin egallagan.

1-jadval. Bo‘lajak sport psixologlarining individual-psixologik xususiyatlari bo‘yicha faktorli tahlil ko‘rsatkichlari

Shkalalar	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor	5-faktor	6-faktor
Muloqotga moyillik	-0,102	-0,644	-0,236	0,464	0,199	0,058
Hissiy barqarorlik-beqarorlik	-0,643	0,040	0,481	0,036	-0,086	0,504
Hukmronlikka intilish-tobelik	0,550	-0,507	-0,230	-0,221	-0,121	-0,057
Ijtimoiy yetuklik-onglilik	0,220	-0,434	0,707	-0,011	-0,084	-0,223
Dadillik-tortinchoqlik	0,684	0,161	0,431	-0,331	0,482	0,003

Ishonuvchanlik-shubhalanish	0,615	-0,418	-0,152	-0,163	0,402	0,120
O‘ziga ishonch-ishonmaslik	0,086	-0,011	-0,023	0,498	0,232	0,712
Mustaqillik-tobelik	-0,515	0,526	-0,032	-0,553	0,547	0,518
O‘zini nazorat qilish	0,518	0,550	-0,535	0,174	-0,188	0,129
Zo‘riqish-bo‘shashish	0,172	-0,121	0,291	0,684	0,528	-0,237
Mas’uliyatlilik	0,196	0,539	0,483	-0,559	0,364	0,302
Jur’atkorlik	0,120	0,548	-0,141	0,485	0,341	-0,543
Matonatlilik	0,533	0,247	0,459	0,287	-0,506	-0,523
Qat’iylik	-0,758	-0,005	-0,012	0,020	0,232	-0,198

Birinchi faktor tarkibida dadillik (0,684), ishonuvchanlik (0,615), hukmronlikka intilish (0,550), matonatlilik (0,533), o‘zini nazorat qilish (0,518), mustaqillik (-0,515) va qat’iylik (-0,758) ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori faktor yuklamalariga ega. Mazkur ko‘rsatkichlar bo‘lajak sport psixologlarining emotsional-irodaviy xususiyatlari, mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatlari va qaror qabul qilish bilan bog‘liq psixologik sifatlarini ifodalashi mumkin. Sport psixologi uchun bunday xususiyatlar, ayniqsa, musobaqa jarayonida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqarish va professional pozitsiyani saqlashda muhimdir.

Ikkinchi faktor tarkibida muloqotga moyillik (-0,644), o‘zini nazorat qilish (0,550), mas’uliyatlilik (0,539), jur’atkorlik (0,548), mustaqillik (0,526) va hukmronlikka intilish (-0,507) ko‘rsatkichlari ajralib turadi. Bu omilning mazmuni bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ va ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Sport psixologining sportchilar, murabbiylar va jamoa a’zolari bilan samarali muloqot o‘rnatishi, ularning ehtiyojlarini anglay olishi hamda kasbiy munosabatlarda mas’uliyatli pozitsiyani egallashi faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchi faktor tarkibida ijtimoiy yetuklik-onglilik (0,707), hissiy barqarorlik (0,481), dadillik (0,431), mas’uliyatlilik (0,483) va matonatlilik (0,459) ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori yuklamaga ega. Ushbu omil shaxsning ijtimoiy yetukligi, o‘z xatti-harakatlarini anglab boshqarishi, kasbiy mas’uliyatni his etishi va murakkab vaziyatlarda barqaror munosabat bildirish xususiyatlari bilan izohlanishi mumkin.

To‘rtinchi faktor tarkibida zo‘riqish-bo‘shashish (0,684), o‘ziga ishonch (0,498), jur’atkorlik (0,485) va muloqotga moyillik (0,464) ko‘rsatkichlari ajralib turadi. Bu omil emotsional zo‘riqish sharoitida o‘zini boshqarish, psixologik ishonch va kommunikativ faollik bilan bog‘liq jihatlarni ifodalaydi. Beshinchi faktorda mustaqillik (0,547), zo‘riqish-bo‘shashish (0,528), dadillik (0,482), ishonuvchanlik (0,402) va matonatlilik (-0,506) ko‘rsatkichlari namoyon bo‘lgan. Oltinchi faktor

esa o‘ziga ishonch (0,712), hissiy barqarorlik (0,504), mustaqillik (0,518) va jur’atkorlik (-0,543) ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Umuman olganda, faktorli tahlil natijalari bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda alohida shaxsiy sifatlar emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘zini boshqarish, kommunikativ faollik, ijtimoiy yetuklik, emotsional barqarorlik va kasbiy mas’uliyat mutaxassisning professional faoliyatga tayyorgarligini belgilovchi muhim psixologik ko‘rsatkichlar sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni ko‘p qirrali psixologik mexanizmlarga asoslanishini ko‘rsatadi. Sport psixologining professional faoliyati faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish yoki psixodiagnostik metodikalardan foydalanish bilan cheklanmaydi. U, avvalo, sportchi shaxsining individual xususiyatlarini anglash, uning emotsional holatiga to‘g‘ri munosabat bildirish, ishonchli psixologik muloqot o‘rnatish va murakkab vaziyatlarda samarali yordam ko‘rsatish qobiliyatini talab qiladi. Shu bois kasbiy kompetentlikning psixologik asoslarini rivojlantirishda shaxsiy va kasbiy sifatlarning o‘zaro uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Tadqiqot natijalarida emotsional barqarorlik va o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichlarining bir nechta faktorlar tarkibida namoyon bo‘lishi ushbu sifatlarning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Sport muhitida yuqori raqobat, musobaqa oldi hayajoni, mag‘lubiyat, jarohatlanish, natijaga erishish bosimi va jamoaviy nizolar kabi holatlar tez-tez uchraydi. Bunday vaziyatlarda sport psixologi o‘zining psixologik muvozanatini saqlashi, sportchining ruhiy holatini to‘g‘ri baholashi va vaziyatga mos psixologik yordam strategiyasini tanlashi lozim. Demak, emotsional barqarorlik mutaxassisning shaxsiy xususiyati bo‘lish bilan birga, uning kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim mezon ham hisoblanadi.

Kommunikativ xususiyatlarning faktorli tahlilda alohida namoyon bo‘lishi sport psixologining kasbiy faoliyatida shaxslararo munosabatlar muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Sportchi bilan ishonchli munosabat o‘rnatish, uning muammolarini tinglash, psixologik holatini tushunish va zarur tavsiyalar berish kommunikativ kompetensiyaning amaliy ifodasidir. Shu bilan birga, sport psixologi murabbiylar, shifokorlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi sababli jamoaviy muloqot madaniyatiga ham ega bo‘lishi zarur.

Ijtimoiy yetuklik, mas’uliyatlilik va mustaqillik ko‘rsatkichlarining muhim faktor yuklamalariga ega bo‘lishi bo‘lajak mutaxassisning kasbiy qarorlar qabul qilishga tayyorligi bilan bog‘liq. Sport psixologi o‘z faoliyatida psixologik etikaga rioya qilishi, sportchining individual xususiyatlarini hisobga olishi, maxfiylik tamoyillarini saqlashi va har bir vaziyatda professional mas’uliyatni his qilishi kerak. Shu jihatdan ijtimoiy yetuklik va mas’uliyatlilik kasbiy kompetentlikning muhim shaxsiy asoslari sifatida qaraladi.

Kasbiy motivatsiya va refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiyasi yuqori bo‘lgan bo‘lajak sport psixologi o‘z bilimlarini muntazam yangilashga, yangi psixologik yondashuvlarni o‘rganishga va amaliy tajribasini boyitishga intiladi. Refleksiya esa bajarilgan faoliyat natijalarini tahlil qilish, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni anglash va kelgusidagi faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi. Shu sababli oliy ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini tahlil qilish, amaliy vaziyatlarni muhokama etish, psixologik keyslar bilan ishlash va mentorlik faoliyatini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarni ustuvor deb hisoblash mumkin: psixologik treninglar orqali emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish; rolli o‘yinlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish; sport jamoalarida kuzatuv va amaliyot tashkil etish orqali kasbiy tajribani oshirish; stressli vaziyatlarni modellashtirish orqali psixologik barqarorlikni mustahkamlash; refleksiv mashg‘ulotlar orqali o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish.

XULOSA

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar asosida bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish murakkab, ko‘p komponentli va uzluksiz psixologik jarayon ekanligi aniqlandi. Mazkur jarayon mutaxassisning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, individual-psixologik xususiyatlari va kasbiy qadriyatlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Sport psixologining professional faoliyatga tayyorligi, avvalo, uning sportchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, murakkab psixologik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi, emotsional barqarorligini saqlashi va kasbiy mas’uliyatni his etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot materiallaridagi faktorli tahlil natijalari bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligida emotsional-irodaviy sifatlar, kommunikativ qobiliyatlar, ijtimoiy yetuklik, mustaqillik, mas’uliyatlilik va o‘zini nazorat qilish xususiyatlari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, hissiy barqarorlik, o‘ziga ishonch, matonatlilik va kommunikativ faollik sport psixologining murakkab kasbiy vaziyatlarga moslashishi hamda samarali faoliyat olib borishi uchun zarur psixologik asoslar hisoblanadi.

Shuningdek, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim jarayonining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, psixologik treninglar, vaziyatli mashqlar, kasbiy refleksiya va mentorlik faoliyatidan samarali foydalanish zarurligi asoslandi. Bo‘lajak sport psixologlariga sportchilarning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, emotsional holatini baholash, stressni boshqarish va jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni muntazam rivojlantirish imkoniyatini yaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak sport psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samaradorligi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan

bir qatorda, mutaxassisning shaxsiy psixologik salohiyatini takomillashtirishga ham bog‘liq. Shu sababli sport psixologlarini tayyorlash tizimida kasbiy motivatsiya, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya, stressga chidamlilik va refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit psixologik-pedagogik yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арзикулов Д.Н., Гаппаров З.Г., Вахабова Д.Б. Психология и психология спорта. – Т.: УзДГТИ, 2014. – 67 с.

2. Елисеев С.А., Журин Н.В., Журина Т.Н. Профессиография практикующего психолога в спортивной деятельности // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2016. – № 10 (140). – С. 242–246.

3. Тиунова О.В. Разработка и реализация многоуровневой системы повышения квалификации по спортивной психологии // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2017. – № 3 (145). – С. 223–228.

4. Рабочая книга практического психолога: пособие для специалистов, работающих с персоналом / Под ред. А.А. Бодалева, А.А. Деркача, Л.Г. Лаптева. – М.: Астрасемь, 2002. – 640 с.

5. Басова Н.В., Дмитриева И.Л. О необходимости фандрайзинга в развитии социально-значимых спортивных проектов // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2016. – № 9 (139). – С. 7–10.